

I.A.KARIMOV ASARLARIDA YUKSAK MA'NAVIYATLI SHAXSNI SHAKLLANTIRISH G'OYALARI

Sattarova Sevinch Berdiyori qizi
JDPI 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada I.A.Karimov asarlarida yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirish g'oyalari haqida so'z yuritilgan/

Tayanch so'zlar: Ma'naviyat, g'oya, mafkura, qadriyat, jamiyat, milliy istiqlol g'oyasi, tajavuzkor kuch, vayronkor g'oya

Inson shunday yaralganki, u tabiat va jamiyatda paydo bo'ladigan ko'pdan-ko'p rnuammolarga yoshligidanoq javob izlaydi, Hayotdagi turli voqea-hodisalarning mohiyatini tushunishga intiladi. Dunyoning sir-asrorini sodda va aniq qilib izohlab beradigan biiimlar, tasavvur va tushunchalarga qiziqadi. Shu tariqa u doimo haqiqatni bilishga intilib, nimanidir kashf qilib, yangiliklarni qidirib yashaydi. Odamzodning qadim-qadimdan o'z intilishlariga mos g'oya va mafkurani yaratish yo'lidagi urinishlari ham uning asl haqiqatni bilish, olg'a qarab intilish, o'zining orzulariga munosib bo'lib yashash zaruratidan kelib chiqqan, Chunki g'oya va mafkura maqsadni ravshanlash-tiradi, insonning, xalq va millatning ruhi va tafakkuriga mos tarzda ifodalab, bu yo'ldagi harakatlarni knchaytiradi. Maqsad aniq bo'lsa, oldinga qarab intilish ham, hayotning ma'nosini tushunish ham, haqiqatni anglash ham oson kechadi. G'oya va mafkura harakat manbai bo'lib xizmat qiladi. Shu bois inson o'z orzu-intilishlari, qiziqish va ehtiyojlarini amalga oshirish borasida dasturilamal bo'ladigan g'oya va mafkuraga doimo ehtiyoj sezadi. Bashariyatning ko'p asrlik tarixi, xalqimizning ko'hna tajribalari, mustaqillik yillaridagi taraqqiyot yo'li ham inson va jamiyat hech qachon g'oya va mafkurasiz yashay olmasligini ko'rsatadi. Chunki tabiatda, jamiyatda bo'shliq bo'lmagani kabi, inson qalbi va ongida ham bo'shliq bo'lmaydi. Agar bunday bo'shliqqa yo'l qo'yilsa, odamlar o'z orzu-intilishlari va hayotiy manfaatlariga mos qadriyatlarga emas, balki soxta g'oya hamda mafkuralarga ishonib, to'g'ri yo'ldan adashishi, yaxshilik o'rniga yomonlik, ezgulik o'rniga yovuzlik ortidan ergashib ketishi mumkin. Chunki soxta g'oya va maf-kuralar tajovuzkor bo'ladi. Tajovuz birovning hayoti, haq-huquqiga hujum qilib, uarni izdan chiqarish, egallab olishga bo'lgan urinishni bildiradi. Tajovuzkor kuch bo'sh joyni tez egallaydi, zaif odamlarni tez bo'ysundiradi. U buzg'unchilik va vayronkorlikning asosidir. Shuning uchun dunyodagi aksariyat vayronkor kuchlar tajovuzkor g'oya va mafkuralardan kuch oladi. XX asrning 30-yillarida Germaniyada hukmronlik qilgan rashizm, o'tgan yuzyillik oxiri va XXI asr boshida Afg'onistonda ildiz otgan «Tolibon» harakatining kirdikorlari bunga misol bo'la oladi.

Bunyodkor g'oya va mafkuralar esa o'z ta'sirini ma'rifat asosida yoyishga intiladi. Prezident Islom Karimov aytganidek, ular jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurash olib boradi. Chunki bunday g'oya va mafkuralar o'z haq-huquqini chuqur anglab etgan millat yoki xalqning ezgu orzu-intilishlarini ifoda etadi. Bunday g'oya va mafkuraga ega bo'lgan xalq hech qachon tajovuzkor kuchlar ta'siriga tushmaydi. Chunki uning qalbi va ongida bo'shliq bo'lmaydi, u har qanday vaziyatda ham o'zini kuchli va g'olib his qiladi.

Markaziy Osiyo mintaqasida sobiq kommunistik mafkura hukmronligi barham topib, bu hududdagi yosh mustaqil davlatlar mustaqil rivojlana boshlagach, odamlarda yangicha qadriyat, yangicha g'oya va mafkuraga ehtiyoj paydo bo'ldi. Chunki istiqoldan keyin vujudga kelgan yangicha hayot imkoniyatlari yangicha orzu-intilishlarni yuzaga chiqarayotgan edi. Bu orzu-intilishlarni xalqning ruii va tafakkuri, turmush tarziga mos g'oya va mafkuralarda aks ettirish zarurati tug'ildi. Shu bois Prezident Islom Karimov yurtimizda yangi jamiyat barpo etishning yo'l-yo'riq va tamoyillarini, xalqimizning bu boradagi niaqsad va vazifalarini asoslab berdi. Yangi jamiyat qurishning ana shu dasturi asosida islohotlar strategiyasi belgilab olindi, milliy davlatchiligimiz asoslari, ko'hna qadriyatlarimiz tiklandi, ma'naviyatga, milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasini shakllantirishga, yosh avlodni ma'rifiy asosda tarbiyalashga e'tibor kuchaydi. Har qanday o'tish davrida, jamiyat hayotida bo'lgani kabi, odamlarning qalbi va ongida ham yangilanish jarayoni yuz beradi. Ular o'z umrini o'tab bo'lgan eski qadriyatlar, g'oya va mafkuralardan voz kechib, taraqqiyot talabi bilan shakllana boshlagan yangi g'oya va mafkuralarga, hayotiy qadriyatlarga ishona boshlaydi. Mana shu jarayonda ayrim tajovuzkor mafkuralar ham chiroyli va go'zal g'oyalar bilan niqoblanib, odamlarning qalbiga yo'l topmoqchi bo'ladi. Bizning mintaqamizda ildiz otishga urinib ko'rgan ayrim tajovuzkor g'oya va mafkuralar ham ana shu jarayondan foydalanib, odamlarning qalbi va ongiga o'rnashib olishga urindi. Ular ayniqsa hayotda yuz berayotgan ijtimoiy o'zgarishlarni hali yaxshi anglab etmagan ayrim yoshlarni o'z ta'siriga tushirishga harakat qildi. Odamlarning qalbi va ongida bo'shliq paydo bo'lishi va ularning zararli, tajovuzkor g'oya va mafkuralar ta'siriga berilishiga yo'l qo'ymaslik, istiqlol yo'lidagi maqsadlarimizni xalqimizga singdirish maqsadida yurtimizda milliy mafkurani shakllantirishga alohida e'tibor berildi. Bu mafkuraning asosiy tushuncha va tamoyillari Prezident Islom Karimov asarlarida o'z aksini topgan. Shuning uchun yurtboshimizning asarlari asosida milliy istiqlol g'oyasi asosiy tushuncha va tamoyillari ishlab chiqildi va risola hoida chop etildi. Milliy istiqlol g'oyasining asosiy tushuncha va tamoyillari shakllanib kelayotgan milliy mafkuramizning negizini tashkil etadi, uning ma'no-mazmunini ifodalaydi. Bu tushuncha va tamoyillar xalqimizning yangi jamiyat qurish borasidagi orzu-

intilishlarini, istiqlol yillarida orttirilgan boy tajribalarni, milliy va urnumbashariy qadriyatlar uyg'unligi, g'oya va mafkuralar tarixi, bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi bilan bog'liq bilim hamda tasawurlarni mujassam etadi. Buni bilib oling. Milliy istiqlol g'oyasi bilan bog'liq bilim va tasawurlarni bosqichma-bosqich o'rganib borish yoshlarda yuksak dunyoqarash, mustahkam e'tiqod va mafkuraviy immunitetni shakllantirishga xizmat qiladi. Shuning uchun mamlakatimizda «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» alohida fan sifatida o'qitilmoqda. U Prezidentimiz Islom Karimovning 2001-yil 18-yanvardagi farmoyishiga asosan ta'lim tizimiga joriy etildi. Siz o'rganayotgan «Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari» ham ana shu fanning tarkibiy qismidir.

Bu fan nimalarni o'rgatadi? nega aynan «Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari» deb ataladi?

Bu fan milliy istiqlol g'oyasi bilan bog'liq bilim va tushunchalarni, xalqimizning boy ma'naviyatidagi bugungi zamonga mos eng zarur tamoyillar, urf-odat va an'analarni o'rgatadi. Buni bilib oling. G'oya va ma'naviyat shakllanishi, ijtimoiy hayotdagi o'rni va vazifasi, tarbiyaviy ahamiyatiga ko'ra bir-biriga g'oyat yaqin. G'oya bilan bog'liq bilimlar ma'naviyat bilan bog'liq bilimlarni ham taqozo etadi. G'oya ham, ma'naviyat ham insonning qalbi va ongidagi o'zgarishlarni jamiyat hayotidagi voqealar bilan bog'liq holda o'rganishni taqozo etadi. Shularning barchasini inobatga olgan holda, bu fan «Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari» deb ataladi.

Mazkur fanni o'rganishda yuqorida qayd etilgan «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasi, Prezident Islom Karimovning milliy g'oya va mafkura, ma'naviyatga oid asarlari, ajdodlarimizning boy merosi, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosiy manba, metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Bu fanning asosiy maqsadi mustaqil taraqqiyot jarayonida insonning e'tiqodi, dunyoqarashi, tafakkuri, xarakteri va fazilatlarini shakllantiradigan, ularga ta'sir etadigan ma'naviy-mafkuraviy asoslarni o'rganish hamda yosh avlod ongiga singdirishdan iborat.

Milliy istiqlol g'oyasining asosiy tushuncha va tamoyillari, mustaqillik yillarida orttirilgan bilim va tajriba, xalqimizning ma'naviy boyliklari, milliy va umumbashariy qadriyatlar, zamonaviy taraqqiyot yutuqlari bu ma'naviy-mafkuraviy asoslarni tashkil etadi. Milliy istiqlol g'oyasining asosiy tushuncha va tamoyillari deganda, biz mustaqillik yillarida yangi mafkurani shakllantirish borasida olib borilgan izlanishlar natijasida yuzaga kegan g'oyalar, qoida va ta'riflar majmuini, tuyg'u va tushunchalar tizimini tushunamiz.

«Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari» fanining 9-sinf uchun mo'ljallangan bu o'quv qo'llanmasida komil inson va ijtimoiy hamkorlik, millatlararo hamjamiyatlik va dinlararo bag'rikenglik kabi, o'zbekiston -- yagona Vatan», «ona tili -- millat ruhi», «Jaholatga qarshi ma'rifat» singari tushuncha va tamoyillar haqida keng ma'lumot beriladi. Shuningdek, uncla «ma'naviyat» tushunchasi haqida atrotlicha fikr yuritiladi, xalqi-mizning ma'naviy qiyofasini belgilaydigan ko'pdan-ko'p milliy urf-odatlarimiz, an'ana va qadriyatlarimizning shakllanish tarixi, mohiyati, ulaming sobiq mustabidchilik zamonida qanday ta'qiqlangani, istiqlol yillarida qayta tiklanib, yangicha ma'no-mazmun bilan to'ldirilgani hayotiy misollar asosida tushuntiriladi. Vatanga muhabbat oiladan boshlanishmi inobatga olib hamda sizning quyi sinflarda «Odobnoma», Watan tuyg'usi» hamda «Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari» fanlari bo'yicha olgan bilimlaringizni hayotiy asosda boyitishni nazarda tutib, ushbu qo'llanmada oila ma'naviyatiga doir tushuncha va tasavvurlarga ko'proq o'rin berilgan. Bugungi milliy va umumbashariy taraqqiyot, inson ma'naviyati va tafakkurini kamol toptirish, unda mustahkam e'tiqod va dunyoqarash, mafkuraviy immunitet asoslarini shakllantirish bilan bog'liq bilimlarni o'rgatuvchi bu fan ijtimoiy fanlarning deyarli barchasidan, ayniqsa, falsafa, tarix, adabiyotdan oziqlanadi, ularga suyanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Islom Karimov. «Adolat - qonun ustuvorligida». Toshkent, «O'zbekiston» nashriyoti. 2001-yil
2. Islom Karimov. «Ozod va obod Vatan. erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz». Toshkent, «O'zbekiston» nashriyoti, 2000-yil, 331-o'sha manba. 473-bet
3. Islom Karimov. «Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch» Toshkent, «Ma'naviyat» nashriyoti, 2008-yil